



## GEGRAFIYA DARSLARIDA MUAMMOLI MAVZULARDA ROLI O'YINLARNI QO'LLASH.

Ollaberganova Saida Sherboy qizi

Urganch davlat Universiteti Geografiya kafedrasida doktoranti

saidaallaberganova26@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15735437>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-Iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 20-Iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 25-Iyun 2025 yil

### KEYWORDS

Geografiya, muammo, geografik o'yinlar, rolli o'yinlar, xarita, muammo, ko'rgazmali materiallar, video, rasmlar.

### ABSTRACT

*Geografiya darslarida o'quvchilarning dars mavzusini yaxshi tushunishiga va o'rganilayotgan obyekt, jarayon yoki voqea xodisa haqida tasavvurning shakllanishiga shu bilan birga dars sifatining oshishida geografik o'yinlardan foydalanish orqali o'quvchilarga muammoli darslarni to'laroq tushuntirishda, o'quvchilarni fikrlab muammoga yechim topishda yordam beruvchi samarali o'yinlardan biri rolli o'yinlar hisoblanadi.*

Bugungi kun talabi darslarni Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib, noan'anaviy interfaol usullar yordamida tashkil etishdir.

Geografik o'yinlarning mazmun va mohiyatini ochib berilishida, shuningdek, darslarda geografik o'yinlarni qo'llab chiqishga harakat qilindi.

Geografiya darslarini va geografiyadan sinfdan tashqari ishlarni hayotga tadbiiq etish, ularni qiziqarli va ijodiy tashkil etish – bosh maqsaddir.

Darsda o'yinlardan geografik o'yinlardan foydalanish muhim o'rin egallaydi. Shu o'rinda geografik o'yinlarni darslarga olib kirish ko'zlangan maqsadga erishishda benihoyat katta yordam beradi. Geografik o'yinlar turli tuman bo'lib xar bir mavzuga mos keluvchi texnologiyalar metodlar orqali geografik o'yinlardan foydalanish yosh avlodni darslardagi charchoqlarini unitib yanada faolroq bo'lishlariga, ularni qiziqishlarini yanada oshirishga katta yordam beradi. Geografiya darslarini hayotga bog'lab, turli xil metodlar geografik o'yinlar orqali mustahkamlab qiziqarli qilib tashkil etilsa ana shundagina dars mavzulari har bir saboq oluvchilar ongiga chuqurroq singadi. Yosh avlodni har tomonlama barkamol, mustaqil fikrli, ilimli, ma'naviy yetuk, Vatanimizning yanada gullab, yashnashi uchun o'z bilim va kuchini ayamaydigan qilib tarbiyalash biz o'qituvchilarga katta mashaqat va mas'uliyat yuklaydi.

Rolli o'yinlar - ma'lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holatlari, xatti-harakati ishlanadi, rollar majburiy mazmuni bilan taqsimlanadi.

O'yinni tashkil etish maqsadlari quyidagilardir:

- ta'limiy (didaktik) maqsad;
- tarbiyaviy maqsad;
- faoliyatni rivojlantirishga yo'naltiruvchi maqsad;
- ijtimoiy maqsad.

S.Kallaganning ta'qidlashicha, rolli o'yinlarning muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilar:

–Jamoa a'zolari o'rtasida samimiy muhitni qaror toptirish;

–o'yin jarayonida qat'iy talablar qo'yilishini inkor etadi;

–o'qituvchi va o'quvchilarning erkin, bemalol, o'ziga ishongan holda, hotirjam harakat qilishlariga erishish;

–sinfda qulay sharoitning mavjud bo'lishi(shovqin darajasini nazorat qilish, o'quvchilarni chalg'ituvchi harakatlarni sodir etmaslik);

–sinfda tartib va tinchlikni saqlash maqsadida o'quvchilarning o'yin faolligiga ta'sir qilmaslik.

O'yinni ishlab chiqish - o'yin senariysini ishlab chiqish, yo'riqnomalar tuzish va moddiy ta'minotni ta'minlashni o'z ichiga oladi. Rolli o'yini, senariysi quyidagilardan O'yin ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat mazmuni o'yin Shartli ravishda yaratilgan syujet Muayyan predmet (jismlarni) o'yinning shartli vositasi sifatida Tanlangan rollarni ijro etish vositasi bo'lgan o'yinlar, harakatlar O'ynash uchun olingan o'yin yoki rollar turi iborat:

o'quv maqsadi; o'yin vazifasi, o'rganiladigan muammo tafsiloti; vaziyatning tafsiloti va ishtirok etuvchilarning tasnifi.

O'yinga kirishish quyidagilarni anglatadi:

–guruhni shakllantirish;

–mashg'ulotlarning bosh maqsadini ifodalash;

–muammo va vaziyatni vujudga keltirish;

–rollarni taqsimlash,

–o'yin reglamentini o'rnatish;

–materiallar, yo'riqnomalar, qoidalar va ko'rsatmalar to'plamini tarqatish;

8-sinf O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiya darsligining "Sanoat va ekologik muammolar" mavzusi kabi bir qancha mavzularda muammolarning yechimini topishda o'quvchilarga shu muammoni to'laligicha tushinib, fikrlab yechim topishlarida rolli o'yinlarning ahamiyati katta.

Agar vaqt cheklovlari sababli munozara o'tkazishga imkon bo'lmasa, ushbu uslubdan foydalanish kerak emas. Agar tezislarning ko'pchiligi bo'yicha ishtirokchilar fikri bir-biriga mos kelsa, mashqqa bo'lgan qiziqish tezda yo'qoladi.

#### **Xulosa.**

Hozirda zamonda o'z dolzarbligini yo'qotmagan pedagogik an'analarga yangicha qarash, to'plangan tajribani ijobiy va salbiy tomonlari bilan qayta ko'rib chiqish davr talabi hisoblanadi.

Bugungi kun talabi darslarni Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib, noan'anaviy interfaol usullar yordamida tashkil etish, geografik o'yinlardam foydalangan holda yoshlarni ilm olishga qiziqtirish, shuningdek darslarda geografik o'yinlarni qo'llash orqali o'quvchilar ta'lim olish samaradorligini oshirishga va ularni yanada qiziqtirishga harakat qilishimiz lozim. Didaktik o'yinlar vositasida o'quvchilarda bilimga qiziqishni uyg'otish uning qiziqishlariga tayanib tashkil etilsa samarali bo'ladi. Bunday hollarda bolada doim yangiliklarni bilishga ishtiyoq uyg'onadi, bilimga qiziqish uyg'onadi. Bilimga qiziqishni muntazam rivojlantirish va mustahkamlash o'quvchilarning o'qishga ijlbiy munosabatlarini tarbiyalaydi o'zlashtirish darajasini oshiradi. Bilishga qiziqish kichik maktab o'quvchisini izlanishga o'rgatadi udoim

har xil savollarga javobni qidirishga o'rganadi. O'quvchining izlanuvchanlik faoliyati unda emotsional ko'tarinkilik muvaffaqiyatdan quvonish hissini tarbiyalaydi. Bilishga qiziqish faqat jarayon natijasiga ijobiy ta'sir qilib qolmay balki tafakkur, idrok, xotira, diqqat kabi psixik jarayonlarning faol rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Kalonov B. H. Mamatov A. Ommobop geografiya.- T.: Zar qalam nashriyoti, 2006. - 160b.
2. Qurbanniyozov R., Niyozov P. Geografik o'yinlar Toshkent "O'qituvchi"-1990 y.85- 92 b.
3. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot.-Toshkent., 2013.-226 b.
4. Qurbanniyozov R. "Geografiya o'qitish metodikasi" Urganch-2001-y. 180-185 b.
5. O'. X. Muxammedov, M. X. Usmanboevna, S. S. Rustamov "Ta'limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar " Toshkent 2016 y. 47-b.
6. Kalonov B.H., Hayitov A.T., Erdonov L.N. O'zbekiston geografiyasini maktabda o'rganish.-Qarshi, Nasaf nashriyoti, 2004.-254b.

